ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ВИЛОЯТ ҲОКИМЛИГИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ БОШҚАРМАСИ

БУХОРО ВИЛОЯТ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ХОДИМЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ИНСТИТУТИ

ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ВА АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ САМАРАЛИ ЖОРИЙ ЭТИШ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

Республика илмий - амалий конференцияси

ТЕЗИСЛАР ТЎПЛАМИ
II ҚИСМ

(8-9 январ)



Бухоро 2016

Шунинг учун бугунги кунда»Таълим тўғрисида»ги Қонун,»Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури»талабларидан келиб чиқиб таълим муассасаларида ўқитиш методларини танлаш ва қўллашда таълим (мавзу)нинг мақсади ҳамда ақлий, маънавий-ахлоқий тарбия вазифаларидан келиб чиқиб, қуйидагиларни назарда тутиш керак:

а) илмий-амалий ҳаётий тажрибаларни ўзлаштиришни ва ўқувчиларда илмий дунёқараш асосларини тарбиялашни;

б) ўқувчи-ёшларни пухта, аниқ тизимли билим, кўникма, малакалар билан қуроллантиришда илмий техникавий тараққиёт (ИТТ) талабларини;

в) ўқувчиларни мустақил, ижодий, мантиқий фикрлашга ўргатишни;

г) таққослаш, таҳлил қилиш, синтез, умумлаштириш, хулосалар чиқаришга малакалар ҳосил қилишни;

д) билишга бўлган интилиш, қизиқиш ва қобилиятларни ўстириш.

Шу ўринда шуни алоҳида қайд этиб ўтиш жоизки, илғор педагогик технологиялар асосида ўқитишда ўқув маълумотларини ўзлаштириш самарадорлиги бошқа ўқитиш методларига нисбатан юқори бўлади. Буни Буюк Британиянинг Старклайу университети қошида халқаро лойиҳалар марказининг директори,»Халқ таълими вазирлиги ва Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига Ўзбекистон таълим тизимини ислоҳотига кўмаклашиш»лойиҳасининг халқаро эксперти Ян Смит ҳам Буюк Британия, Покистон, Ботсванияда олиб борган тажрибаларига асосланиб 8 апрел 1999 йилда Республикада ўтказилган халқаро анжуманда»Илғор педагогик технологиялар»мавзусида қилган маърузасида ҳам қайд қилиб ўтди. Унинг қайд этишича илғор педагогик технологиялар асосида ўқитишда самарадорлик мутлақо ошган. Буни қуйидаги жадвалда яққол кўриш мумкин.

Ўқитиш методлари	Натижа (% хисобида)
Тинглаганда	10
Ўқиганда	20
Тинглаган ва ўқиганда	30
Мунозарада	50
Ҳаётда тўкнаш келганда	75
Бир-бирига ўргатганда	90

Табиат, жамият инсон тафаккурининг такомиллашуви унинг тўхтовсиз ривожланиб, такомиллашиб бориши, илм-фан, техника ва технологиянинг жадаллашуви таълим методларига танлаш ва қўллашда янгича ёндашишни уларни ўзлаштириш ва фаоллаштиришни тақозо этмоқда. Мақсад таълимга инновацион усулларни олиб кириш ва ўқувчилар билимини янада кенгайтиришга эришиш.

MAKTAB TA'LIMIDA OTA-ONALAR YIG`ILISHLARINI O`TKAZISH ORQALI ULAR BILAN HAMKORLIKNING SIFATINI OSHIRISH USULLARI

Astanov R. – Buxoro viloyati XTXQTMOI Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy ishlar prorektori
Aslanova N. – Buxoro viloyati XTXQTMOI uslubchisi

Farzandlar tarbiyasi va ularga ta'lim berishda o`z hissasini qo`shayotgan har bir o`qituvchi o`ziga xos murakkab va mas'uliyatli faoliyatni amalga oshiradi. Ya'ni maktabga kelayotgan har bir o`quvchiga o`z onasi yoki yaqin kishisidek bo`lib qoladigan sinf rahbaridan o`ta madaniyatli bo`lish va o`zida ijobiy xususiyatlarni jamlash talab etiladi. Chunki o`sib kelayotgan yosh avlod avvalo ota-onasi, so`ngra ustozlaridan saboq olib voyaga yetadi.

Sinf rahbari o`ta madaniyatli bo`lishi, so`zlashish, kiyinish madaniyatini to`la egallagan bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o`quvchilarga o`z ta'sirini o`tkazadigan har bir sinf rahbari yuksak pedagogik mahoratga ega bo`lishi talab etiladi. O`quvchilar qalbiga kirib olish, ularga yondashish uchun sinf rahbari alohida psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorrektsion kompetentsiyalarni ham egallagan bolishi zarur. O`quvchilarga haddan ortiq ko`ngilchanlik ham ularning taltayib ketishlariga olib kelishini unutmasligimiz darkor. Shuning uchun o`quvchilar bilan kerakli vaqtda qattiqqo`l muomalada bo`lish, sinf jamoasi oldida ularni uyaltirmaslik, individual

tarzda psixokorrektsion va psixoprofilaktik ishlarni olib borish, ularga o`z yaqin kishisidek munosabatda bo`lish ta'lim – tarbiya jarayoninig samarali bo`lishiga zamin yaratadi. O`quvchilarga oddiy sabablar bois qo`pol munosabatda bo`lish ularda tanbehlarga e'tibor bermay qo`yishga olib keladi. Shuningdek, maktabda ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli olib borish uchun ota-onalar bilan hamkorlikni doimiy tarzda yo`lga qoyish lozim. Ota-onalar yig`ilishlarini muntazam tashkil etib borish, ular bilan o`quvlar o`tkazish, o`quvchilarning oilalariga tashrif buyurib ularning oilaviy ahvoli bilan yaqindan tanishish, ota-onalar bilan yozma tarzda doimiy muloqotda bo`lish zarur. Bu uchrashuvlardan maqsad nafaqat o`quvchilarning maktabdagi faoliyatlari bilan ota-onalarni tanishtirib borish, balki ular shaxsiga yondashish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishhamdir. Shuningdek, farzand tarbiyasi borasida ota-onalarga amaliy yordam ko`rsatish ham ota-onalar bilan hamkorlik ishlarining maqsadidir. Shuning uchun ota-onalar majlislarini tashkillashtirishda o`quvchilarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko`rsatish yo`llarini ham birgalikda hal etish zarur. Maktabda ota-onalar majlislari sifatini oshirish ham bunday ishlarni muvaffaqiyatli qilib bajarishga turtki bo`ladi.Ota-onalar yig`ilishlari shunday tashkil etilishi kerakki, majlisdan har bir ota-ona farzandlar tarbiyasi uchun kerakli ma'lumotlar, yo`l-yo`riqlar olsin va tarbiya borasidagi o`z tajribalarini yanada boyitib, sinf rahbariga o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko`makchi bo`lsin.

Ota-onalar yig`ilishlarini o`tkazish uchun har bir sinf rahbari o`z mahoratini ishga solishi, bunday yig`ilishlarni sifatli qilib o`tkazish uchun esa majlis loyihasi oldindan rejalashtirishi kerak. Rejalashtirishda o`quvchilarning yutuq va kamchiliklari, jamoat ishlari, bilimlar bellashuvidagi natijalari, fanlar kesimida ko`rsatayotgan natijalari to`g`risidagi ma'lumotlar alohida o`rin tutish zarur. Bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sinf rahbari quyidagi xususiyatlarga ega bo`lishi kerak:

1. Muloqotchanlik va nutq madaniyati (oratorlik) ;
2. Tinglay olish (tolerantlik);
3. O`z fikrini bildira olish (maslahat berish, yo`l-yo`riq ko`rsatish);
4. Xushmuomalalik va iltifotlilik;
5. Adolatli, to`g`riso`z bo`lish;
6. Salohiyatli bo`lish va o`z salohiyatini ko`rsata olish;
7. Yangiliklardan doimiy xabardorlik va ularning mohiyatini tushuntira olish.

Ota-onalar yig`ilishlarini o`tkazishda sinf rahbari quyidagi jihatlarga e'tibor ko`rsatishi zarur:

1. Yil boshidan barcha sinf o`quvchilarining ota-onalarini majlislarga jalb qilish;
2. Jamoa bilan kelishgan holda ota-onalar orasidan tashkiliy ishlar uchun yordam ko`rsatuvchi vakillarni tanlash;
3. Ota-onalarni rejalashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va maktab hayotidagi yangiliklar bilan doimiy tarzda xabardor etib borish;
4. O`quvchilarning individual oilaviy ahvolidan xabardor bo`lish;
5. Ota-onalar bilan doimiy muloqotni tashkil etish (telefon yoki o`quvchilarning uylariga tashrif buyurgan holda);
6. Ota-onalar bilan o`tkaziladigan majlislarda noan'anaviy konferensiya usulidan foydalanish (o`quvchilarning yutuq va kamchiliklarini muhokama qilishda ota-onalar bilan o`z fikr va mulohazalarini o`rtoqlashish maqsadida);
7. Ota-onalar bilan doimiy telefon muloqotlarini olib borishga vaqt yetmasa, ular bilan yozma muloqotda bo`lish;
8. Takliflar quttisi tashkil etish: oy oxirida ushbu takliflar bilan tanishish;
9. O`quvchilar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar, ularning fanlar orasida erishgan yutuqlarini namoyish etuvchi ko`rgazmalar tashkil etish va ota-onalarga o`z farzandlarining yutuqlarini namoyish qilish.
10. Majlisda kun tartibiga qo`yiladigan masalalar ketma-ketligini tuzib chiqish (biror bir masala e'tibordan chetda qolmasligi uchun)
11. Majlis ishtirokchilari uchun "Oltin qoidalar" tizimini hamkorlikda ishlab chiqish;

Masalan:

- Majlislarga doimiy tarzda ishtirok etish
- Kechikmaslik
- Faollik
- Jamoa fikriga hurmat
- Tashabbuskorlik
- Hamjihatlik
- O`zaro hurmat...

12. Ota – onalarga farzandlarining kamchiliklaridan oldin ularning yutuqlarini so`zlab berish
13. Boshqa fan o`qituvchilarini ham yig`ilishga chorlash va o`quvchilarning fanlarni o`zlashtirish darajasini ota-onalarga ma'lum qilish
14. O`quvchilarning kun davomidagi faoliyati va ularning kelajakdagi orzularidan ota-onalarning qay darajada xabardorligini tekshiruvchi "O`z farzandingizni bilasizmi»mavzusida yozma so`rovnoma o`tkazish
15. Ota-onalarning maktabdagi tashkiliy ishlar to`g`risidagi mulohazalarini so`rash
16. O`quvchilarning bo`sh vaqtlarini qanday tashkil etilayotganligi to`g`risida ma'lumotlarni oydinlashtirish
17. Oy davomida sinf o`quvchilarini taqdirlab borish (Eng yaxshi jamoatchi, Orastalik malikasi, Eng kuchli o`quvchi, Eng a'lochi o`quvchi, Eng yaxshi kitobxon, Eng odobli o`quvchi...) va bu yutuqlardan ota-onalarni xabardor etib borish
18. Majlisda farzand tarbiyasi borasidagi ibratli hikoya, rivoyatlardan unumli foydalanish, farzand tarbiyasida milliy qadriyatlarimizdan foydalanish yo`llari to`g`risida ota-onalarga maslahatlar berish
19.O`quvchilarning yosh xususiyatlari bilan bog`liq psixologik muammolarni hal etish yo`llarini izlash maqsadida majlisga maktab psixologini jalb qilish
20. Yil yakunida o`tkaziladigan yig`ilishda o`quvchilarning ota-onalariga majlislarga faol ishtirok etgani va farzandi erishgan yutuqlar uchun rahmatnomalar ulashish va boshqalar...

Hammamizga ma'lumki, ota-onalar yig`ilishlari maktab va oila munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ota-onalar majlisini o`tkazishda birinchi navbatda farzand tarbiyasidagi eng muhim mavzular tanlanishi, aniq maqsad belgilab olinishi kerak. Ikkinchidan, majlis o`tkazish metodikasini ishlab chiqish, yig`ilishga ota-onalarni qay tarzda taklif qilish, yig`ilish o`tkaziladigan xonaning ko`rinishini ham oldindan tayyorlab olish zarur.

Yig`ilishning kirish qismini xushmuomalalik bilan boshlash, maqsadni aniq lo`nda bayon qilish kerak. Shuningdek, o`qituvchi o`zining tashqi ko`rinisiga e'tibor berishi, ortiqcha bezaksiz, bejirim, o`qituvchiga xos kiyimda bo`lishi majlis qatnashchilariga o`qituchi shaxsiga hurmat hissining uyg`onishiga xizmat qiladi. Ichki quvvat - ovoz ohangi, tabassum, qo`l siqish, emotsional vaziyat - ijobiy munosabatlarni shakllantirishga turtki bo`luvchi muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Masalan: "Bola odobi»mavzusida o`tkaziladigan ota-onalar yigilishini quyidagi tartibda o`tkazish mumkin. Tashkiliy qismdan so`ng bola odobiga ta'sir etuvchi omillar to`g`risida ota-onalar yordamida "Klaster" tuziladi. Unda ochqich so`z sifatida "Bola odobi»soz birikmasi tanlanadi. O`qituvchi tomonidan "Bola tarbiyasiga kimlar, qanday muhit, qanday ta'sir ko`rsatish mumkin?»degan savol qo`yiladi.



Klasterdagi har bir yo`nalish ota – onalar bilan birga chuqur va har tomonlama ta qilinadi, xulosalanadi. Yoki "T chizmasi" metodi orqali ota – onalarning ba'zi fikrlarini aniq olish mumkin. Bunda ota-onalarning internet haqidagi fikrlarini bilib olish mumkin. Masalan:

Internet va undan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini ko`rsatib o`ting.

Internet

Ijobiy	Salbiy
Vaqtni tejash	inson salomatligiga ta`sir
Ma'lumotlarni esda saqlash (ko`rish orqali)	keraksiz ma'lumotlar
Kitoblarning elektron variantlari	bola ma'naviyatiga ta`sir
Eng yangi ma`lumotlar	o`z ustida izlanishning pasayishi

Ota-onalar bilan birgalikda bola tarbiyasiga oid hikmatli so`zlar, rivoyatlar, ibratli hik va xalq maqollari keltiriladi. Bu boradagi eng yaxshi oilalar tajribasi o`rtoqlashiladi. Yig qatnashchilarining fikrlari va takliflaridan kelib chiqib tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda ota-on tarqatiladi. Tavsiyalar quyidagicha bo`lishi mumkin.

- Bolaning kuchli tomoniga suyaning, uning xatolariga urg`u berishdan qoching.
- Bolaga mamnunligingizni ko`rsating.
- Bolangizga nisbatan muhabbat va hurmatda bo`ling.

- Katta topshiriqlarni bola bajara oladigan kichikroq topshiriqlarga bo`lib bajarishiga yordam bering.
- Bola bilan ko`proq vaqtingizni o`tkazing, o`zaro munosabatda mutoyibani ishlating.
- Imkoniyati bor joyda bolaning o`z muammolarini o`zi hal qilishiga qo`yib bering.
- Intizomiy jazolardan qoching.
- Bola xususiyatining o`ziga xosligiga e`tibor qarqting.
- Bolaga nisbatan ishonch va mehr ko`rsating
- Farzandingizni internetdan foydalanishini doimiy tarzda nazorat qiling
- ...

Ota-onalarga bu tavsiyalarni tez-tez ko`zga tashlanadigan joylarga ilib qo`yib, e'tibordan chetda qolmasligini ham tayinlash kerak.

Farzandlar tarbiyasi uchun mas`ul har bir ota-ona doimiy tarzda ta'lim muassasasi bilan uzluksiz hamkorlikda bo`lsa, ko`zlangan natijalarga erishish yanada osonlashadi. Shuningdek, ta'lim muassasasida o`tkaziladigan ota – onalar majlislarini oddiy o`tkazishdan ko`ra turli noan'anaviy usullar, ya'ni interfaol o`yinlar, psixologik treninglar, davra suhbatlari asosida tashkil etish oila va ta'lim muassasi hamkorligini yanada mustahkamlab, yosh avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

ГЕНЕТИКАНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ СИФАТ ВА САМАРАДОРЛИК КАФОЛАТИДИР

Умарова Ж. – Б.ф.н. Навоий давлат педагогика институти

Бугунги кунда асосий диккат эътибор таълимнинг сифатини оширишга каратилган. Олий таълимда ўкитишнинг сифатини ошириш сўзсиз илгор ўкитиш усулларидан кандай фойдаланишга боғлик бўлмокда. Талабалар билим савиясини ривожлантириш ва такомиллаштириш мавзуси доимо таълим тизимида долзарб муаммолардан бири бўлиб келган. Шу сабабли талабалар пухта ва чукур билим хамда кўникмаларга эга бўлишлари, юкори малакали рақобатбардош мутахассис бўлиб етишишлари учун ўкитиш жараёнида албатта ахборот технологиялари ва илгор педагогик технологиялардан фойдаланиш зарурати тугилади.

Юкори тезликда ривожланаётган ахборот технологиялари инсоният тараққиётининг турли боскичларида хам мавжуд бўлиб, хозирги замон ахборотлашган жамиятнинг ўзига хос хусусияти шундака, ахборот технологиялари барча мавжуд технологиялар, хусусан янги технологиялар орасида етакчи ўрин эгалламокда.

Давлатимиз хам ушбу технологияларнинг ривожланишига жуда катта ахамият бермокда. Ўзбекистонда АКТ соҳасида Ўзбекистон Республикасининг бир қанча конунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари, 40 дан ортик карорлар ва 1000 га якин соҳага оид меъёрий хужжатлар ишлаб чикилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг«Компьютерлаштиришнинг янада ривожлантириш ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш тўғрисидаги»2002 йил 30 майдаги ПФ – 3080 сонли фармони иктисодиётнинг турли тармоклари, жумладан фан ва таълим соҳаларига ахборот технологияларини кенг жорий этиш, компьютер ва ахборот тизимларидан кенг фойдаланиш учун йўл очиб берди. Фармонда "...реал иктисодиёт тармокларида бошкарув, бизнес, фан ва таълим соҳаларида компьютер ва ахборот технологияларини кенг жорий этиш, аҳоли турли катламларининг замонавий компьютер ва ахборот тизимларидан кенг бахраманд бўлишлари учун шарт-шароитлар яратиш" белгилаб кўйилган.

Фармонни бажариш максадида вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 6 июнда кабул килинган карори асосида 2002 -2010 йилларда компьютерлаштириш ва ахборот технологияларини ривожлантириш дастури ишлаб чикилди ва катор ишлар амалга оширилди.

Таълим жараёнига ахборот технологияларини татбик килишдан максад, замонавий жамиятнинг зарурий йўналишларидан бири бўлиб, талабаларнинг дарсга бўлган

МУНДАРИЖА

IV ШЎЪБА – ТАБИИЙ ВА АНИҚ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ВА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА КЎЛЛАНИЛАДИГАН МОДУЛЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ.... Юсупова Ф.....3

ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ ЎРНИ....Астанов Р. 5

MAKTAB TA`LIMIDA OTA-ONALAR YIG`ILISHLARINI O`TKAZISH ORQALI ULAR BILAN HAMKORLIKNING SIFATINI OSHIRISH USULLARI ..., Astanov R., Aslanova N..... 7

ГЕНЕТИКАНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИК КАФОЛАТИДИР .., Умарова Ж.....11

СИФАТ ВА INTERNET GLOBAL TARMOG`IDA AXBOROT XAVFSIZLIGI, Zaripov N, Hasanova N....133

BA'ZI NOSTANDART TENGLAMALARNI YECHISH.., Shukurov G` 155

BIOLOGIYA DARSLARIDA VIRTUAL LABORATORIYALAR ASOSIDA O`QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH, Nazarova F, Jo`raqulov T 177

BIOLOGIYA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, Latipova M, Avezova M.....20

KIMYOVIY REAKSIYA TURLARI MAVZUSINI "KICHIK GURUHLARDA ISHLASH» USULIDA O`TISH BO`YICHA TAVSIYALAR, Ergashov M.Y. 222

O`QUVCHILARDA TABIATNI ASRASH HAMDA QO`RIQXONALAR BILAN TANISHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARINING AMALIY AHAMIYATI, Rabbimova F Ravshanova A 244

FIZIKA FANINI O`QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO`LLASH IMKONIYATLARI (Macromedia Flash dasturi misolida), Jo`raqulov T 277

MATEMATIKANING AYRIM MASALALARINI YECHISHDA MICROSOFT EXCEL DASTURINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI, Xayriyev F, Jo`raqulova S 288

TABIIY FANLARNING O`QITISH SAMARDORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O`RNI, Shamsidinova G., Bekmurodova O., Kuychieva M., Axmedov M 299

GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O`YINLARDAN FOYDALANISH, Kalonov B31

GEOMETRIYADAN MASHQ QILUVCHI DASTURLAR, Jumayev J, Nigmatova N 322

ЭКОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШДА ИНГЛИЗ ТИЛИ ВА КОМПЬЮТЕР ХИЗМАТИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАСИ, Ҳасанова Л 334

DARS JARAYINIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIYALAR, METODLARDAN FOYDALANGAN HOLDA ZAMONAVIY DARSLAR TASHKIL ETILSIN, Hoshimova N 355

MAKTAB GEOGRAFIYA TA`LIMIDA TURIZM GEOGRAFIYASINI O`QITILISHI, Obloqulov H.A. 388

ЭШИТИШ ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЎҚУВЧИЛАР МАКТАБЛАРИДА ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ,Мансурова З....399

ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ВА АХБОРОТ – КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ, Калонов Р.....411

ZIYONET SAYT SATELITLARIDA VIDEO LAVHA JOYLASHTIRISH, Kamalova N.I, Xamidov S.X.....444

GOOGLE QIDIRUV TIZIMIDAN FOYDALANISHNING QO`SHIMCHA IMKONIYATLARI, Болтаев Б, Камолов И.Р.....455

GEOGRAFIYA TA`LIMI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI, Qodirova M.M 477

KOMPYUTER - MASHQ BAJARTIRISH VOSITASI, Jumayev J, Jumayeva N.J 499

МУНДАРИЖА

IV ШЎЪБА – ТАБИИЙ ВА АНИҚ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ВА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА КЎЛЛАНИЛАДИГАН МОДУЛЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ.... Юсупова Ф.....3

ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ ЎРНИ....Астанов Р. 5

MAKTAB TA`LIMIDA OTA-ONALAR YIG`ILISHLARINI O`TKAZISH ORQALI ULAR BILAN HAMKORLIKNING SIFATINI OSHIRISH USULLARI ..., Astanov R., Aslanova N..... 7

ГЕНЕТИКАНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИК КАФОЛАТИДИР .., Умарова Ж.....11

СИФАТ ВА INTERNET GLOBAL TARMOG`IDA AXBOROT XAVFSIZLIGI, Zaripov N, Hasanova N....133

BA'ZI NOSTANDART TENGLAMALARNI YECHISH.., Shukurov G` 155

BIOLOGIYA DARSLARIDA VIRTUAL LABORATORIYALAR ASOSIDA O`QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH, Nazarova F, Jo`raqulov T 177

BIOLOGIYA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, Latipova M, Avezova M.....20

KIMYOVIY REAKSIYA TURLARI MAVZUSINI "KICHIK GURUHLARDA ISHLASH» USULIDA O`TISH BO`YICHA TAVSIYALAR, Ergashov M.Y. 222

O`QUVCHILARDA TABIATNI ASRASH HAMDA QO`RIQXONALAR BILAN TANISHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARINING AMALIY AHAMIYATI, Rabbimova F Ravshanova A 244

FIZIKA FANINI O`QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO`LLASH IMKONIYATLARI (Macromedia Flash dasturi misolida), Jo`raqulov T 277

MATEMATIKANING AYRIM MASALALARINI YECHISHDA MICROSOFT EXCEL DASTURINING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI, Xayriyev F, Jo`raqulova S 288

TABIIY FANLARNING O`QITISH SAMARDORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O`RNI, Shamsidinova G., Bekmurodova O., Kuychieva M., Axmedov M 299

GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O`YINLARDAN FOYDALANISH, Kalonov B31

GEOMETRIYADAN MASHQ QILUVCHI DASTURLAR, Jumayev J, Nigmatova N 322

ЭКОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШДА ИНГЛИЗ ТИЛИ ВА КОМПЬЮТЕР ХИЗМАТИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАСИ, Ҳасанова Л 334

DARS JARAYINIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIYALAR, METODLARDAN FOYDALANGAN HOLDA ZAMONAVIY DARSLAR TASHKIL ETILSIN, Hoshimova N 355

MAKTAB GEOGRAFIYA TA`LIMIDA TURIZM GEOGRAFIYASINI O`QITILISHI, Obloqulov H.A. 388

ЭШИТИШ ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЎҚУВЧИЛАР МАКТАБЛАРИДА ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ,Мансурова З....399

ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ВА АХБОРОТ – КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ, Калонов Р.....411

ZIYONET SAYT SATELITLARIDA VIDEO LAVHA JOYLASHTIRISH, Kamalova N.I, Xamidov S.X.....444

GOOGLE QIDIRUV TIZIMIDAN FOYDALANISHNING QO`SHIMCHA IMKONIYATLARI, Болтаев Б, Камолов И.Р.....455

GEOGRAFIYA TA`LIMI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI, Qodirova M.M 477

KOMPYUTER - MASHQ BAJARTIRISH VOSITASI, Jumayev J, Jumayeva N.J 499